

ADABIY XOTIRA: NAZARIYA VA BADIY TALQIN

Murodillayev Nurali,*Xalqaro innovatsion universitet, O'zbek filologiyasi va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi**E-mail: nuralimurodillayev66@gmail.com**Orcid: 0009-0006-9515-4089***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843708>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy xotira nazariyasining nazariy-metodologik asoslari hamda uning badiiy matn tahlilidagi amaliy ko'rishlari tadqiq etiladi. Maqolada adabiy matn jamiyatning tarixiy-madaniy tajribasini saqlovchi va talqin qiluvchi narrativ mexanizm sifatida talqin etiladi. Tahlil materiali sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani hamda Chingiz Aytmatov asarlari tanlab olinib, ularda tarixiy va madaniy xotiraning badiiy ifodasi o'rganildi. Tadqiqot adabiy xotira nazariyasining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham asoslab beradi.

Kalit so'zlar: adabiy xotira, kollektiv xotira, madaniy xotira, badiiy matn, mifopoetika, interpretativ tahlil, komparativ metod, tarixiy roman.

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations of literary memory theory and its practical application in the analysis of literary texts. The study interprets the literary text as a narrative mechanism that preserves and reinterprets the historical and cultural experience of society. The analysis is based on the novel "Bygone days" by Abdulla Qodiriy and selected works of Chingiz Aytmatov, examining the artistic representation of historical and cultural memory within them. The research substantiates not only the theoretical significance of literary memory theory but also its practical relevance in literary analysis.

Keywords: literary memory, collective memory, cultural memory, literary text, mythopoetics, interpretative analysis, comparative method, historical novel.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методологические основы теории литературной памяти и её практическое применение в анализе художественного текста. Литературный текст рассматривается как нарративный механизм сохранения и интерпретации историко-культурного опыта общества. Материалом анализа послужил роман «Минувшие дни» Абдулла Кадири, а также произведения Чингиз Айтматов, в которых исследуется художественное выражение исторической и культурной памяти. В работе обосновывается не только теоретическая значимость теории литературной памяти, но и её практическая ценность в литературоведческом анализе.

Ключевые слова: литературная память, коллективная память, культурная память, художественный текст, мифопоэтика, интерпретативный анализ, сравнительный метод, исторический роман.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xotira masalasi ijtimoiy fanlarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bordi. Ayniqsa, Moris Halbvaks (Maurice Halbwachs) tomonidan ilgari surilgan kollektiv xotira nazariyasi xotirani ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilishga asos bo'ldi. Keyinchalik Jan Assmann madaniy xotira tushunchasini ishlab chiqib, yozma matn va ramzlarning tarixiy ongni saqlashdagi rolini asoslab berdi.

Adabiy xotira nazariyasi aynan shu konsepsiyalar negizida shakllanib, badiiy asarlarni jamiyatning tarixiy-madaniy tajribasini uzatuvchi narrativ vosita sifatida talqin qiladi. Badiiy matn nafaqat estetik hodisa, balki o'tmish haqidagi tasavvurlarni

shakllantiruvchi diskursdir. Mazkur tadqiqotning maqsadi adabiy xotira nazariyasining ilmiy asoslarini yoritish hamda uning badiiy matn tahlilidagi amaliy ko‘rinishini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Tadqiq jarayonida adabiy xotira nazariyasini chuqur va tizimli o‘rganish maqsadida bir necha ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Mazkur metodlar tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlash hamda amaliy tahlil natijalarining ishonchliligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Avvalo, *nazariy tahlil metodi* asosida kollektiv va madaniy xotira konsepsiyalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda asosiy ilmiy qarashlari o‘rganildi. Bu jarayonda xotiraning individual emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruktsiya sifatida talqin qilinishi masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, Moris Halbvaks tomonidan ilgari surilgan kollektiv xotira nazariyasi hamda Jan Assmann tomonidan ishlab chiqilgan madaniy xotira konsepsiyasi tahlil qilinib, ularning adabiyotshunoslikdagi metodologik ahamiyati ochib berildi. Nazariy tahlil orqali adabiy xotira tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy ong va identitet bilan bog‘liqligi aniqlashtirildi.

Shuningdek, maqolada *komparativ (qiyosiy) tahlil metodi* qo‘llanildi. Ushbu tahlil usuli yordamida o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari o‘zaro solishtirildi, ularning tarixiy va madaniy xotirani ifodalashdagi o‘xshash hamda farqli jihatlari aniqlandi. Qiyosiy tahlil adabiy xotiraning milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi. Natijada turli adabiy makon va zamonlarda yaratilgan asarlarda xotira motivining qanday badiiy shakllanishi ilmiy asosda yoritildi.

Bundan tashqari, *matnshunoslik (tekstual) tahlil metodi* asosida tanlangan asarlarning ichki tuzilishi, kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi va til xususiyatlari o‘rganildi. Ayniqsa, badiiy matnda xotira elementlari – tarixiy voqealarga murojaat, retrospektiv tasvir, mifologik qatlam, ramziy obrazlar va an’anaviy qadriyatlarining aks etishi kabi jihatlari aniqlanib, tahlil qilindi. Ushbu metod orqali xotiraning matn ichidagi funksional roli va estetik ahamiyati ochib berildi.

Interpretativ (talqin) yondashuv esa matndagi yashirin ma’no qatlamlarini ochishga xizmat qildi. Bu yondashuv asosida badiiy asardagi ramziy obrazlar, tarixiy kontekst, muallif pozitsiyasi va davr ruhi kengroq sharhlandi. Xususan, tarixiy voqealar badiiy talqin jarayonida qanday qayta yaratilgani, muallifning o‘tmishga munosabati va u orqali zamonaviy muammolar qanday yoritilgani tahlil qilindi. Interpretativ tahlil adabiy xotiraning subyektiv va estetik qirralarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil materiali sifatida o‘zbek adabiyotidan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani hamda qirg‘iz adabiyotidan Chingiz Aytmatov asarlari tanlab olindi. “O‘tkan kunlar” romani XIX asr Turkiston hayotini badiiy talqin qilish orqali milliy tarixiy xotirani shakllantiruvchi muhim asar sifatida e‘tirof etiladi. Unda o‘tmish ijtimoiy munosabatlari, siyosiy ziddiyatlar va ma’naviy qadriyatlar tasviri orqali kollektiv xotira adabiy shaklga

keltirilgan. Chingiz Aytmatov asarlarida esa mifologik tafakkur, tarixiy qatlam va zamonaviy muammolar o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu esa madaniy xotiraning uzviy va ko‘p qatlamli tabiatini namoyon etadi. Aytmatov ijodida xalq og‘zaki ijodi motivlari, afsona va rivoyatlar orqali tarixiy ongning badiiy talqini amalga oshiriladi.

Shu tariqa, qo‘llanilgan metodlar bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy yondashuvlar sifatida tadqiqotning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘un holda yoritish imkonini berdi.

Natijalar. Tahlil jarayonida adabiy xotiraning tarixiy, madaniy va identitet bilan bog‘liq jihatlari badiiy matn misolida tizimli ravishda o‘rganildi. Olingan natijalar adabiyotning nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy xotirani shakllantiruvchi muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

Tarixiy xotiraning badiiy ifodasi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida XIX asr Turkiston hayoti keng tarixiy panoramada tasvirlanadi. Asarda Qo‘qon xonligi davridagi siyosiy beqarorlik, ichki nizolar, mahalliy hokimiyat vakillari o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari badiiy talqin etiladi. Muallif tarixiy voqelikni hujjatli aniqlik bilan emas, balki estetik qayta yaratish orqali tasvirlaydi, natijada o‘tmish voqealari o‘quvchi ongida jonli va ta’sirchan shaklda gavdalanadi. Roman qahramonlari Otabek, Kumush, Zaynab kabi obrazlar orqali davrning ijtimoiy-axloqiy muammolari ochib beriladi. Bu obrazlar individual taqdir egasi bo‘lishi bilan birga, o‘z zamonasining ijtimoiy timsoliga aylanadi. Shunday qilib, tarixiy voqealar va badiiy obrazlar uyg‘unligi kollektiv xotiraning adabiy shaklini yuzaga keltiradi. Asar o‘tmishni idealizatsiya qilmaydi, aksincha, undagi ziddiyat va inqirozlarni ko‘rsatish orqali millat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy xulosalarni ilgari suradi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, roman tarixiy xotirani ikki qatlamda ifodalaydi:

- konkret tarixiy voqealar va muhit tasviri orqali;
- o‘tmish saboqlarini zamonaviy tafakkur bilan bog‘lash orqali.

Natijada “O‘tkan kunlar” nafaqat tarixiy roman, balki milliy tarixiy ongni shakllantiruvchi badiiy xotira manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniy xotira va mifopoetika. Chingiz Aytmatov asarlarida madaniy xotira ko‘proq mifologik va ramziy qatlam orqali ifodalanadi. Yozuvchi xalq og‘zaki ijodi, afsona va rivoyatlarni zamonaviy voqelik bilan sintez qiladi. Masalan, uning roman va qissalarida uchraydigan mifologik syujetlar insoniyatning azaliy muammolari – xiyonat, vijdon, sadoqat, xotira va unutilish kabi tushunchalarni badiiy talqin etadi. Mifopoetik tafakkur vositasida Aytmatov tarixiy xotirani zamonaviy ong bilan bog‘laydi. Bu jarayonda mif oddiy badiiy bezak emas, balki madaniy xotiraning tashuvchisiga aylanadi. Afsona va rivoyatlar orqali ajdodlar dunyoqarashi, qadimiy qadriyatlar va an’anaviy axloqiy mezonlar saqlanadi. Shu tariqa asarda vaqtning uch o‘lchovi: o‘tmish, bugun va kelajak o‘zaro tutashadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Aytmatov ijodida madaniy xotira ramziy obrazlar tizimi, tabiat va inson munosabati tasviri hamda mifologik unsurlar orqali ifodalanadi. Bu esa madaniy xotiraning ko‘p qatlamli va uzluksiz jarayon ekanini

tasdiqlaydi. Yozuvchi asarlarida unutilish fojea sifatida talqin qilinadi, xotirani saqlash esa insoniylikning muhim sharti sifatida ilgari suriladi.

Xotira va identitet. Natijalari adabiy matnlarning milliy identitetni shakllantirishdagi o'rnini beqiyos ekanini ko'rsatadi. Tarixiy obrazlar, milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar tasviri o'quvchida o'zlikni anglash jarayonini kuchaytiradi. Adabiy xotira orqali jamiyat o'z o'tmishini qayta ko'rib chiqadi, tarixiy tajribani baholaydi va undan xulosa chiqaradi. Ayniqsa, mustaqillik davri adabiyotida tarixiy xotiraga murojaatning kuchaygani kuzatiladi. Bu jarayon milliy o'zlikni tiklash va adolatni qaror toptirish ehtiyoji bilan bog'liq. Tarixiy shaxslar va voqealarning qayta talqini jamiyatning o'zini identifikatsiya qilishiga, ma'naviy tayanch nuqtalarini belgilashiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, adabiyot millatning "ma'naviy arxivi" vazifasini bajaradi. U o'tmishni nafaqat eslatadi, balki uni talqin qiladi, qayta baholaydi va kelajak avlod ongiga singdiradi. Demak, adabiy xotira nafaqat estetik kategoriya, balki ijtimoiy ong va milliy identitetning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiy matn tahlili jarayonida olingan xulosalar Moris Halbvaks va Jan Assmann tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Xususan, xotira individual ong mahsuli sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, madaniy muhit va tarixiy sharoit doirasida shakllanuvchi ijtimoiy-madaniy qurilma ekanligi badiiy asarlar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Halbvaks ta'kidlaganidek, inson o'z xotirasini jamiyatdan tashqarida shakllantira olmaydi, u doimo ijtimoiy kontekst bilan belgilanadi[1]. Assmann esa madaniy xotira tushunchasi orqali yozma matnlar, ramzlar, marosimlar va san'at asarlarining tarixiy ongni saqlashdagi rolini asoslab bergan[2]. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan badiiy asarlar aynan shu nazariy fikrlarni tasdiqlaydi: adabiyot o'tmishni saqlovchi passiv "ombor" emas, balki uni qayta talqin qiluvchi va mazmunan yangilovchi faol mexanizm hisoblanadi[7]. Demak, adabiyot xotira konstruksiyasining nafaqat tashuvchisi, balki yaratuvchisi hamdir.

Adabiy xotira nazariyasi aynan shu jihatdan zamonaviy adabiy jarayonlarni anglashda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. U badiiy matnni nafaqat syujet va obrazlar tizimi doirasida, balki tarixiy ong, madaniy meros va identitet masalalari bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv adabiy asarni ijtimoiy xotira makoni sifatida ko'rib, undagi tarixiy qatlamlar, ramziy belgilar va madaniy kodlarni aniqlashga yordam beradi. Adabiy xotira, ayniqsa, milliy o'zlikni tiklash va mustahkamlash jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davrida jamiyat o'z tarixiga murojaat qiladi, unutilgan sahifalarni qayta ochadi va ularni yangi talqinda baholaydi. Tarixiy mavzudagi romanlar, biografik asarlar, xotira janriga oid matnlar millatning ma'naviy arxivini boyitadi. Ular orqali tarixiy shaxslar obrazi qayta tiklanadi, ajdodlar tajribasi zamonaviy ong bilan bog'lanadi.

Bunday asarlar jamiyatda tarixiy mas'uliyat hissini shakllantiradi, o'tmish saboqlarini anglashga undaydi va ma'naviy merosning uzviyligini ta'minlaydi. Shu ma'noda, adabiyot milliy xotiraning uzluksizligini ta'minlovchi ko'prik vazifasini bajaradi. U o'tmish, bugun va kelajakni birlashtirgan holda, jamiyatning o'zligini anglash jarayoniga xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari adabiy xotira nazariyasining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ekanini ko'rsatadi. U badiiy matnni keng ijtimoiy-madaniy kontekstda o'rganish, tarixiy ong va identitet masalalarini chuqurroq anglash hamda zamonaviy adabiy jarayonlarga yangicha metodologik yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, adabiy xotira nazariyasi o'z mohiyatiga ko'ra kollektiv va madaniy xotira konsepsiyalariga tayanadi hamda ularning nazariy-metodologik asoslarini badiiy matn tahliliga tatbiq etadi. Badiiy matn tarixiy voqelikni to'g'ridan-to'g'ri qayta hikoya qilmaydi, balki uni muayyan estetik shakl, obraz va ramzlar tizimi orqali qayta quradi. Natijada adabiyot ijtimoiy xotirani saqlash, tizimlashtirish va talqin qilish vositasiga aylanadi. Ayniqsa, tarixiy burilish davrlarida yaratilgan asarlar millatning o'z o'tmishiga munosabatini, qadriyatlar tizimini va ma'naviy tajribasini mujassamlashtiradi. Shu jihatdan, adabiy matn madaniy xotiraning eng muhim tashuvchilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish, turli davr va janrlarga mansub asarlarni adabiy xotira nuqtayi nazaridan qiyosiy o'rganish, shuningdek, milliy va transmilliy xotira modellarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa adabiy xotira nazariyasining nazariy doirasini yanada boyitish va uning amaliy tatbiq imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maurice Halbwachs. *La mémoire collective*. Paris: Presses Universitaires de France, 1950.
2. Jan Assmann. *Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination*. Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
3. Jan Assmann. *Religion and Cultural Memory: Ten Studies*. Stanford: Stanford University Press, 2006.
4. Erll, Astrid. *Memory in Culture*. London: Palgrave Macmillan, 2011.
5. Ricoeur, Paul. *Memory, History, Forgetting*. Chicago: University of Chicago Press, 2004.
6. Murodillayev N. *Tarixiy xotira – ma'naviy yangilanish va ma'rifatli jamiyat poydevori sifatida (Rauf Parfi lirikasi misolida)*. "Ma'rifatli jamiyat: mazmun va mohiyat, ijtimoiy-falsafiy aspekti (O'zbekiston-2030 strategiyasi asosida)" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.
7. N.Murodillayev. Rauf Parfi she'riyatida milliy xotira. (2025). International journal of recently scientific researcher's theory, 3(7), 41-45. <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/4530>
8. N.Murodillayev. SYMBOLIC IMAGERY AND THE POETICS OF NATIONAL MEMORY IN RAUF PARFI'S POETRY. (2025). International Innovation Research, 1(4), 19-24. <https://xiuresearch.com/index.php/xiu/article/view/967>